



**MILLIY GVARDIYA HARBIY XIZMATCHILARI TOMONIDAN SAVDO  
MAJMUALARI HAMDA BOZORLARDA JAMOAT TARTIBINI  
SAQLASHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО ПОРЯДКА В  
ТОРГОВЫХ КОМПЛЕКСАХ И НА РЫНКАХ ВОЕННОСЛУЖАЩИМИ  
НАЦИОНАЛЬНОЙ ГВАРДИИ

THE LEGAL BASIS FOR THE MAINTENANCE OF PUBLIC ORDER IN  
SHOPPING COMPLEXES AND MARKETS BY MILITARY PERSONNEL  
OF THE NATIONAL GUARD

*Fayzullayev Javohir Narzullo o‘g’li  
Ahmedov Yolqin Yakubovich*

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
Magistratura tinglovchisi*

**Annotatsiya:** Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari, bozorlar hamda savdo majmularining ichki xavfsizligini ta’minalash, hududlarda jamoat tartibni saqlash va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlashga jalb etilgan shaxsiy tarkibning xizmat faoliyati davomidagi mavjud muammolar hamda xizmat faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha bir qancha masalalar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Milliy gvardiya, jamoat tartibini saqlash, xavfsizlik, jinoyatchilikni oldini olish, patrul-post xizmati, jamoat joylari, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari.

**Аннотация:** Подразделения общественного порядка Национальной гвардии, обеспечивающие внутреннюю безопасность рынков и торговых комплексов, поддержание общественного порядка в регионах и обеспечение социальной стабильности в обществе. В данной статье анализируются существующие проблемы во время службы личного состава Национальной гвардии, задействованного в обеспечении общественного порядка, а также ряд вопросов, связанных с дальнейшим совершенствованием службы.

**Ключевые слова:** Национальная гвардия, общественный порядок, безопасность, предупреждение преступности, патрулирование, общественные места, общественная безопасность, подразделения общественного порядка.

**Abstract:** National Guard public order units, ensuring internal security of markets and shopping complexes, maintaining public order in the regions and



ensuring social stability in society. This article analyzes the existing problems during the service of the personnel of the National Guard involved in maintaining public order, as well as a number of issues related to the further improvement of the service.

**Key words:** National Guard, public order, security, crime prevention, patrol, public places, public safety, public order units

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o‘zaro maqsadli hamkorligi yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini “Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun” degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.

Shu o‘rinda jamoat xavfsizligi subektlari haqida to‘xtalib o‘tish maqsadga muofiq bo‘ladi desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi jamoat xavfsizligini ta’minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlardan iborat.

Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan iborat.

Boshqa davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar jamoat xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etuvchi subyektlarga kiradi.

Shu o‘rinda jamoat xavfsizligi subektlari haqida to‘xtalib o‘tish maqsadga muofiq bo‘ladi desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimi jamoat xavfsizligini ta’minlovchi va unda ishtirok etuvchi subyektlardan iborat.



Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan iborat.

Boshqa davlat organlari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolar jamoat xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etuvchi subyektlarga kiradi.

Yuqorida ushbu turli xavf-xatar va ziddiyatlardan kelib chiqqan xolda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.11.2021 yildagi PF-27-son farmoni bilan Milliy gvardiya qo'mondonligi va bo'linmalariga bir qancha tegishli vazifalar belgilandi.

Bunga ko'ra:

Adliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda jamoat tartibini saqlash sohasida sodir etiladigan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolati ichki ishlar organlari bilan bir qatorda Milliy gvardiyaga berilishi bo'yicha qonun loyihasini kiritish.

Bir oy muddatda hududlarning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda jamoat tartibini saqlash faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida 2022-yilda Namangan, Farg'ona, Andijon va Surxondaryo viloyatlaridagi, 2023-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridagi Milliy gvardiyaning harbiy qismlarida muddatli harbiy xizmatni kengaytirish bo'yicha asoslantirilgan takliflar kiritish to'risida vazifalar belgilab o'tildi.

Konsepsiyada Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha Milliy gvardiyaga quyidagi bir qancha tadbirlarni amalga oshirish belgilab o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi:

Jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maqsadli idoraviy dasturlarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshirish;

Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga chek qo'yish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

O'ziga biriktirilgan jamoat joylarida, shu jumladan Toshkent, Nukus shaharlari va viloyatlar markazlaridagi ommaviy tadbirlarda, istirohat bog'lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish;

Vakolati doirasida favqulodda vaziyatlarda va favqulodda holat e'lon qilingan hududlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash;



Terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o'tkazishda vakolatli davlat idoralari bilan hamkorlikda ishtirok etish;

Davlat obyektlarini, o'ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlaydi;

qo'riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;

Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy ishlarni amalga oshirish.

Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida belgilangan vazifalar O'zbekiston Respublikasining « O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida » gi №647 sonli qonunida ham o'z aksini topadi. Qonunga ko'ra Milliy gvardiya bo'linmalariga bir qator vazifalar yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo'shinlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo'lgan maxsus turidir.

Milliy gvardianing asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish;

terrorizmga qarshi kurashishda, shuningdek terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatlari favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish;

tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, surishtiruv o'tkazish, jinoyat ishlarini qo'zg'atish va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish;

davlat obyektlarini, o'ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlash;

qo'riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;

huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish;

jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig'ilishlar, namoyishlar o'tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo'ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash;

favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o'tkazish sharoitlarida huquqiy rejimni ta'minlash;

qo'riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etish;



chet davlatlarning rasmiy vakillarini, oliy darajadagi xorijiy delegatsiyalarni kutib olishda va kuzatib qo‘yishda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokidagi tantanali tadbirlar chog‘ida rasmiy marosimlarni o‘tkazish;

huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilish;

O‘zbekiston Respublikasining hududiy mudofaasi tizimida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini jangovar qo‘llash rejalar bo‘yicha maxsus vazifalarni hal etish, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo‘sishinlariga O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo‘riqlash hamda himoya qilishda ko‘maklashish.

Milliy gvardiya O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

Shunga asosan bugungi kunda Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari, o‘z faoliyatini kengaytirib, nafaqat jamoat tartibini va saqlash fuqarolar xavfsizligini ta’minlar, balki jamoatchilik bilan o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashga ham katta e’tibor qaratmoqda. Mamlakatimizda va dunyoda yuz berayotgan harbiy siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, fuqarolar hayotining turli jabhalarida yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, bugungi kunga kelib jamoat tartibini saqlash bo‘linmalarining o‘rnini va roli har qachongidan ham muhimlashdi.

Xulosa: Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlash brigadasining faoliyati bugungi kunda ahamiyatini yanada oshirgan. Ular jamoat tartibini ta’minalash, xavfsizlikni muhofaza qilish va fuqarolarni himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu brigadalar, yangi texnologiyalar va metodlardan foydalangan holda, nafaqat jamoat joylaridagi tartibsizliklarni bartaraf etishda, balki aholi bilan hamkorlikda xavfsizlikni oshirishga ham e’tibor qaratmoqda.

Jamoat tartibini saqlashda professional tayyorgarlik va o‘zaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega bo‘lib, Milliy gvardiya brigadalari shuni namoyish etmoqda. Kelajakda jamoat tartibini saqlash tizimini yanada rivojlantirish va fuqarolar bilan aloqalarni mustahkamlash orqali, xavfsizlikni yanada oshirish mumkin. Shunday qilib, Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlash brigadalar o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda davom etmoqda va jamoat xavfsizligini ta’minalashda muhim omil hisoblanadi.



### Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar

1. 16.09.2016 yildagi O'RQ-407-sonli "Ichki ishlar organlari to'g'risida" qonuni
2. 18.11.2020 yildagi O'RQ-647-sonli "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida" qonuni 15.06.2022 yildagi O'RQ-778-sonli "Qo'riqlash faoliyati to'g'risida" qonuni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-son O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Farmoni
4. Понятие «военно-профессиональная подготовка», ее сущность и содержание К. В. Аксёнов UDK 37